



1-maydan nimalar o'zgaradi?

2-betda o'qing



Xizmat tekshiruvi xufiyonami?

7-betda o'qing

INSON va qonun

2024-YIL
30-APREL
SESHANBA

№ 17
(1429)

www.hudud24.uz

@adolat_nashrlari



"ADOLAT" milliy huquqiy axborot markazi nashrlariga obuna bo'ling!



"Adolat nashrlari" telegram kanalida kuzating!



www.adolatmarkazi.uz [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official/) facebook.com/hudud24official/

Bu qishloq necha yillardan beri o'zining mo'jizakor tabiati, yoqimli ob-havosi, go'zal manzarasi bilan sayyohlarning sevimli maskaniga aylangan. Ayniqsa, qishloqning yuqori qismi ekoturizm uchun juda qulay. Sayyohlar tog' yon bag'ri bo'ylab otda, tuyada yoki piyoda sayr qilishlari mumkin.

PRESS-TUR

OVJAZSOYGA BORGANMISIZ?

Yaqinda Adliya vazirligi va Toshkent viloyat adliya boshqarmasi tomonidan Ohangaron tumanining Ovjazsoy qishlog'iga xorijiy va mahalliy OAV xodimlari uchun press-tur tashkil etildi. Dastlab jurnalistlar tumanning "O'zbekiston" mahallasida tashkil etilgan "Adliya kutubxonasi" bilan tanishishdi.

Mazkur mahallada 1 ming 105 nafar 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar istiqomat qilishadi. Kutubxonaning ochilishi mahalla yoshlari uchun katta sovg'a bo'ldi. Poytaxt viloyatining barcha tuman va shaharlarida 22 ta ana shunday kutubxona tashkil qilingan. Mazkur ziyo maskanlari 7 ming 100 dan ortiq badiiy adabiyotlar, xorijiy tillardagi kitoblar hamda huquqiy yo'nalishdagi adabiyotlar, mebel jihozlari va kompyuter to'plamlari bilan ta'minlandi. Hozirgi kunda ushbu kutubxonalardagi adabiyotlardan mingdan ortiq yoshlar foydalanishmoqda.

Shu kuni jurnalistlar Ohangaron tuman adliya bo'limida ham bo'lishdi. Mahalliy va xorijiy OAV xodimlari tuman adliya bo'limi, davlat xizmatlari markazi, yuridik xizmat ko'rsatish markazi, FHDY bo'limi faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Ishtirokchilar adliya organlari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning "bir tom" ostida, qulay, ortiqcha vaqt va pul sarflamasdan olish imkoniyati yaratilganiga guvoh bo'lishdi.


Xorijiy va mahalliy OAV xodimlari Ohangaron tumanining Ovjazsoy qishlog'ida otaliqqa olingan hududda o'tkazilgan Yoshlar saylida ham qatnashishdi. Tadbirda viloyat adliya boshqarmasi va Ohangaron tuman adliya bo'limi tomonidan Prezidentimizning 2024-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni ijrosi yuzasidan taqdimot o'tkazildi. Sport bellashuvlari, iste'dodli va iqtidorli yoshlarning chiqishlari namoyish etildi.

Press-tur mobaynida jurnalistlar turizm qishlog'ida tashkil etilgan mehmon uylarining faoliyati, dam olishga keluvchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishishdi. Shu yerning o'zida qishloq aholisi uchun tuman davlat xizmatlari markazi xodimlari tomonidan sayyor davlat xizmatlari ko'rsatildi. Shu kuni 8 ta mehmon uylari ochilib, yangi ish boshlagan tadbirkorlarga davlat xizmatlari markazi tomonidan litsenziyalar berildi.

2023-yilda viloyatga 463,5 ming nafar xorijiy sayyoh tashrif buyurdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,3 baravarga oshgan. Xorijiy sayyohlarga ko'rsatiladigan xizmatlar orqali turizm xizmatlari eksporti 205 million AQSh dollarga yetkazildi. Bu ko'rsatkich ham o'sish darajasiga chiqib, 2022-yilga nisbatan 2,8 baravarga ortdi.

2024-yilda viloyatga 8 million nafar mahalliy turist va 1 million nafar xorijiy turist jalb qilinishi, turizm xizmatlari eksporti hajmini 390 million dollarga yetkazish ko'zda tutilgan. 17 ta mehmonxonona, 10 ta xostel va 105 ta oilaviy mehmon uylari, 24 ta dam olish maskanlari, sanatoriylar tashkil etiladi. Ularning umumiy soni 1 ming 264 taga hamda mavjud o'rinlar soni 30 ming 500 taga yetkaziladi.

O'z muxbirimiz



2 TA'LIM

QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR



Qonunchilikka ko'ra, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari uchun yangi majburiy to'lovlari va yig'implarni faqatgina qonunda belgilash amaliyoti kiritiladi.



HAR OYDA MODDIY YORDAM BERILADI

Reyestrga kiritilgan yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga har oylik uy-joy kommunal xizmatlar haqini to'lash bo'yicha kompensatsiya hamda oziq-ovqat mahsulotlari va shaxsiy gigiyena tovarlari uchun har oyda qo'shimcha pul to'lovlari o'rniga yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun har oyda minimal iste'mol xarajatlari miqdorida moddiy yordam joriy etiladi.



IJRO HUJJATLARINI ELEKTRON SHAKLDA BERISH TARTIBI JORIY ETILADI

Qonunchilikka muvofiq:

- ✓ sud hujjatlari asosida ijro hujjatlarini elektron shaklda berish (yuborish, taqdim etish) tartibi joriy etiladi;
- ✓ fuqarolardan qarzdorliklari uchun undiruv qaratilishi mumkin bo'lmagan eng kam kafolatlangan daromad belgilanadi;
- ✓ ijro ishini yuritishning soddalashtirilgan tartibi pochta xarajatlari bo'yicha qarzdorlikni undirishga ham tatbiq etiladi.



PROTEZ MOSLAMALARI VA REABILITSIYA VOSITALARI XARIDI UCHUN MABLAG'LAR OSHIRILADI

- ✓ protez moslamalari va rehabilitsiya vositalari xaridi uchun davlat tomonidan muhtoj shaxslarga qoplab beriladigan mablag'lar miqdori bozor konyunkturasidan kelib chiqib o'rtacha 3 baravargacha, ayrim vositalarning turlari esa 10 baravargacha oshiriladi;
- ✓ nogironligi bo'lgan shaxslarning protez moslamalari va rehabilitsiya vositalariga muhtojligi alohida tibbiy xulosa rasmiylashtirmasdan nogironlik to'g'risidagi ma'lumotnomasida belgilanadi;
- ✓ nogironlik guruhiga ega bo'lmagan pensiya yoshidagi shaxslarning protez moslamalari va rehabilitsiya vositalariga muhtojligi to'g'risidagi tibbiy xulosa "Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza" elektron axborot tizimida rasmiylashtiriladi.



IJTIMOIY XIZMAT KO'RSATISHGA TADBIRKORLAR JALB ETILADI

Eksperiment tariqasida Toshkent shahrining Mirzo Ulug'bek tumanida o'zgalari parvarishiga muhtoj shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish jarayoniga tadbirkorlik subyektlari outsorsing asosida jalb etiladi.



ZILZILA XAVFI VA PROGNOZIGA OID XULOSALAR HOKIMLIK LARGA BERILADI

Zilzila xavfi va prognoziga oid xulosalarni har oyda joylardagi hokimliklarga kiritish amaliyoti yo'lga qo'yiladi.

Ma'ruf LUKCHAYEV,
"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi mas'ul xodimi



Ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish, ta'lim tashkilotlari faoliyatini ilg'or xorijiy amaliyotlar asosida tashkil etish, pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash davr talabi bo'lib bormoqda.



Ta'lim sohasini takomillashtirish yuzasidan

"YO'L XARITASI" TASDIQLANDI

Mamlakatimiz ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni jahon talablari darajasiga ko'tarish, sohadagi yangi islohotlar uchun 2024-yil 2-fevraldagi "Ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qarori dasturlashtirilgan bo'lmoqda.

Mazkur hujjat bilan "Ta'lim sohasini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlangan. Unda professional ta'lim tizimini takomillashtirishning quyidagi ustuvor yo'nalishlari belgilandi. Xususan, endilikda professional ta'lim muassasalarining o'quv jarayoniga rivojlangan xorijiy davlatlarning ta'lim dasturlari (curriculum) asosida ishlab chiqilgan dasturlarni joriy qilish sohasida bir qator chora-tadbirlar yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish bo'yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish va bitim imzolash tartiblari belgilandi. Xalqaro ta'lim dasturlari joriy qilinadigan kasb va mutaxassisliklarni tanlab olish, ijodiy guruhlarini shakllantirish va xalqaro ta'lim dasturlarini tarjima qilish vazifalari belgilab olindi. Tarjima qilingan xalqaro ta'lim dasturlari asosida mazmuniga milliy segmentni singdirgan holda yangi ta'lim dasturlarini ishlab chiqish belgilandi. Xalqaro ta'lim dasturlari talablaridan kelib chiqib ta'lim dasturlarining o'quv yuklamalarini qayta

ko'rib chiqish va optimallashtirish, o'quvchilarga beriladigan malakalar asosida Professional ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklari va kasblari klassifikatoriga tegishli o'zgartirishlar kiritish zarurligi belgilandi.

Shuningdek, ishlab chiqilgan ta'lim dasturlarini professional ta'lim muassasalarida joriy etish tartiblari ham belgilandi. Muhimi, qarorga asosan professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarning o'z ta'limini oliy ta'lim muassasalarida davom ettirish imkoniyatlari yanada kengaytiriladi. Kasb-hunar ta'limining oliy ta'lim bilan integratsiyasi kuchaytiriladi, jumladan, ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlashni "2+2", "1+3" va boshqa sxemalar asosida tashkil etish bo'yicha takliflar tayyorlanadi.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti va oliygoh huzuridagi professional ta'lim muassasalarida TESOL, TEFL o'quv kurslari, Milliy malakalar ramkasining 3-5-darajadagi malakalarni berishga yo'naltirilgan qo'shma ta'lim dasturlarini joriy qilish belgilandi. Shuningdek, ularning tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bilan integratsiyasi ta'minlanadi.

Toshkent arxitektura va qurilish universitetida va oliygoh huzuridagi professional ta'lim muassasalarida Milliy malakalar ramkasining 3-5-darajalariga mos bo'lgan qo'shma ta'lim dasturlari joriy qilinadi. Ularning tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bilan integratsiyasi ta'minlanadi.

Bu bilan professional ta'lim tizimida o'quvchilar qamrovini oshirishga, o'quvchilar ham kasb o'rganib, ham oliy ta'limga imtiyozli kirish kafolatini qo'lga kiritishga erishishi mumkin.



Bundan tashqari, 2024-yil 24-fevralda tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi"ning "Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo'nalishi bo'yicha 2024-yilga mo'ljallangan amaliy tadbirlar rejasi"da ham ta'limning deyarli barcha sohasida yil davomida amalga oshiriladigan vazifalar mustahkamlab qo'yilgan.

Ushbu hujjatda professional ta'lim muassasalarining pedagog kadrlari tarkibiy sifatini yaxshilash, ularning malakasini ilg'or xorijiy tajriba asosida oshirish yuzasidan 5 ta asosiy ustuvor vazifa belgilab berilgan.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-martdagi qarori bilan "Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibi to'g'risida"gi Nizom tasdiqlandi. Mazkur Nizomda ta'limning barcha bosqichlari uchun davlat ta'lim standartlari alohida belgilab berildi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida ta'kidlab o'tilgan normativ-huquqiy hujjatlar ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy qilishga imkon yaratadi.

Zarifa BOYMURODOVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Uzluksiz ta'lim boshqarmasi uslubchisi

Yurtimizda energoresurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash maqsadida joriy yilning 16-aprelida "Yoqilg'i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Hukumat qarori qabul qilindi. Mazkur qarorda energoresurslar bilan bog'liq bir qator yangiliklar joriy qilinmoqda. Xususan, maishiy iste'molchilar uchun ijtimoiy me'yorlar belgilandi.



TABIY ZAXIRALAR BARCHANING MULKI

Qaror bilan, 1-maydan boshlab maishiy iste'molchilar (aholi xonadonlari) uchun quyidagicha ijtimoiy (bazaviy) me'yorlar kiritiladi:

- elektr energiyasi – oyiga 200 kVtgacha;
- tabiiy gaz (mart-oktabr oylarida) – oyiga 100 kubometrgacha;
- tabiiy gaz (noyabr-fevral oylarida) – oyiga 500 kubometrgacha.

Geografik va iqlim sharoitlarini inobatga olgan holda, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida isitish mavsumi respublikaning boshqa hududlaridan farqli ravishda oktabr-fevral oylari deb belgilandi.

2024-YIL 1-MAYDAN YANGI TARIFLAR KUCHGA KIRADI

Elektr energiyasi maishiy iste'molchilar uchun tariflar (1kVt) uchun, oyiga):

- 200 kVtgacha – 450 so'm (hozirda 295 so'm);
- 201 kVtdan 1000 kVtgacha – 900 so'm;
- 1001 kVtdan 5000 kVtgacha – 1 ming 350 so'm;
- 5001 kVtdan 10 000 kVtgacha – 1 ming 575 so'm;
- 10 001 kVtdan keyin – 1 ming 800 so'm.

Ovqat tayyorlash uchun markazlashgan holda elektr plitalari bilan jihozlangan ko'p qavatli uy-joylar va yotoqxonalarda yashovchi maishiy iste'molchilar belgilangan tariflarning 50 foizi miqdorida to'lashda davom etadi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, bitta xonadonda 11 turdagi elektr jihozlari ishlatilganida bir oyda o'rtacha 180 kVt energiya sarflanadi.

Tabiiy gaz uchun isitish mavsumida – noyabr-fevral oylarida aholi xonadonlari uchun tabiiy gaz tariflari (1 kubometr uchun, oyiga):

- 500 kubometrgacha – 650 so'm (hozirda 380 so'm);
- 501 kubometrdan 2500 kubometrgacha – 1 ming 500 so'm;
- 2501 kubometrdan 5000 kubometrgacha – 1 ming 950 so'm;
- 5001 kubometrdan 10 000 kubometrgacha – 2 ming 275 so'm;
- 10 001 kubometrdan keyin – 2 ming 600 so'm.

Hisob-kitoblarga ko'ra, bitta xonadonda bir oyda o'rtacha 500 kub/metr tabiiy gaz ishlatiladi.

Mart-oktabr oylarida:

- 100 kubometrgacha – 650 so'm;
- 101 kubometrdan 2500 kubometrgacha – 1 ming 500 so'm;
- 2501 kubometrdan 5000 kubometrgacha – 1 ming 950 so'm;
- 5001 kubometrdan 10 000 kubometrgacha – 2 ming 275 so'm;
- 10 001 kubometrdan keyin – 2 ming 600 so'm.

2024-yil 1-iyundan foydalanilgan elektr energiyasi va tabiiy gaz bo'yicha oylik ma'lumot "bazaviy me'yor" va undan ortiq hajmlar kesimida iste'molchilarga yuboriladi.

EHTIYOJMAND OILALARGA KOMPENSATSIYA TO'LANADI

Isitish mavsumida (noyabr-fevral oylarida) ehtiyojmand oilalarga quyidagi kompensatsiyalar beriladi:

- noyabrda 270 ming so'm miqdorida bir martalik moddiy yordam;
- elektr va gaz bo'yicha bazaviy me'yordan oshgan narxlar o'rtasidagi farq kompensatsiya qilib beriladi:
- gaz uchun – oyiga bazaviy me'yordan ortiq foydalanilgan 250 kub metrgacha;
- elektr uchun – oyiga bazaviy me'yordan ortiq foydalanilgan 150 kVt soatgacha.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi ehtiyojmand oilalar uchun to'lovlar oktabr oyidan boshlab to'lanadi. Ehtiyojmand oila sifatida "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" tizimiga kiritilgan oilalar tushuniladi. "Mahalla yettiligi" tomonidan Yagona reyestrga kirmagan ehtiyojmand oilalarning esa qo'shimcha ro'yxati shakllantiriladi.



Tuman (shahar) hokimliklari ham mahallalar kesimidagi ehtiyojmand oilalar qo'shimcha ro'yxatiga o'zgartirish kiritishi mumkin.

Kompensatsiya oluvchi ehtiyojmand oilalar noyabr-mart oylarida (har oyning 15-sanasigacha) "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari yoki mahallalarda faoliyat yurituvchi ijtimoiy xodimlarga murojaat qiladi.

Bunda, arizada pasport ma'lumotlari, abonent raqami va telefon raqami ko'rsatiladi. Ariza berilgan oyning 27-sanasigacha "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ, "Hududgazta'minot" AJ bilan birgalikda o'rganiladi.

O'rganish natijasi asosida kompensatsiya pullari ariza berilgan oydan keyingi oyning 27-sanasigacha ehtiyojmand oilalarning plastik kartasiga o'tkazib beriladi.

Hokimliklar "Xalq banki" bilan birgalikda Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan taqdim etilgan ro'yxatga muvofiq 2024-yil 1-noyabrgacha bank plastik kartasi bo'lmagan ehtiyojmand oilalar vakiliga bepul asosda plastik kartalar ochib berilishini ta'minlaydi.

Latif RAYIMOV,
Sariosiyo tuman adliya bo'limi boshlig'i

Chust tuman adliya bo'limi tomonidan joriy yilning o'tgan davri mobaynida jami 12 ta tashkilotda 6 ta o'rganish o'tkazilib, ularda 524 ta kamchilik va qonunbuzilish holatlariga yo'l qo'yilgani aniqlandi. Qonunbuzilish holatlari yuzasidan turli idora va tashkilotlarga 13 ta taqdimnoma kiritilib, qonunbuzilish holatiga chek qo'yildi.



Qonunbuzilish holatlariga chek qo'yildi

Shuningdek, bo'limga birinchi chorak davomida fuqarolardan 111 ta ariza va shikoyatlar kelib tushgan. Ushbu murojaatlarning 101 tasi ko'rib chiqilib, shundan 50 tasi qanoatlantirilgan, 51 tasiga huquqiy tushuntirish berilgan. Murojaatlarni o'rganish yakuni bo'yicha turli idora va tashkilotlarga taqdimnoma, aybdor shaxslarni ma'muriy javobgarlikka tortish yuzasidan vakolatli organlarga takliflar kiritildi. Qo'llanilgan ta'sir choralari natijasida 4 nafar shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilgan bo'lsa, 20 ta davlat organlari va tashkilotlarining hujjatlari bekor qilindi.

Tumandagi Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi F. Alimovning u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi ish beruvchi tomonidan bekor qilinganidan norozi bo'lib qilgan murojaati o'rganib chiqildi. O'rganish natijasiga ko'ra, fuqarolik ishlari bo'yicha Chust tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi va ishdan bo'shatish to'g'risidagi buyruq bekor qilinib, fuqaro ishga tiklandi. Noqonuniy bo'shatilgan kundan ishga tiklangan kuniga qadar majburiy progul hisob-kitob qilinib, fuqaroga 16 million 500 ming so'm ma'naviy zarar undirib berildi.

Yana bir fuqaro bir necha bor tegishli tashkilotlarga murojaat qilgan bo'lsa-da, fuqarolik pasporti berilmayotganidan norozi bo'lib, sudga ariza kiritilishida hamda O'zbekiston Respublikasida yashab kelayotgani faktini tasdiqlashda amaliy yordam so'rab murojaat qilgan. Murojaatni o'rganish jarayonida, unga tuman FHDY bo'limi tomonidan berilgan tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomaga asosan 1964-yil 7-iyulda tug'ilgani, 1979-yilda tumandagi 16-sonli o'rta maktabning sakkizinchi sinfini tamomlagani hamda 1982-2001-yillarda "Mash'al" jamoa xo'jaligida ishlagani aniqlandi.

Yuqoridagilarga ko'ra, adliya bo'limi tomonidan fuqaroning yashaganlik faktini belgilash maqsadida, fuqarolik ishlari bo'yicha Chust tumanlararo sudiga ariza kiritildi.

Azamat JO'RAYEV,
Chust tuman adliya bo'limi boshlig'i

4 ADLIYA ODAMLAR ORASIDA



QO'SHIMCHA TA'TIL BERILADIMI?

– Bir tashkilotda yoki tarmoqda ko'p yil ishlaganlik uchun qo'shimcha ta'til belgilangan deyishadi. Men 6 yil xususiy korxonada menejer bo'lib ishladim, ayni paytda tibbiyot sohasida hamshira bo'lib ishlayapman. Ushbu holatda menga qo'shimcha mehnat ta'tili beriladimi?



– Mehnat kodeksining 220-moddasi "Bitta tashkilotda yoki tarmoqda ko'p yillik ish staji uchun beriladigan har yilgi qo'shimcha mehnat ta'tili" deb nomlangan. Unga ko'ra, xodimga u bitta tashkilotda yoki tarmoqda ishlagan har besh yil uchun davomiyligi ikki kalendar kun bo'lgan, biroq jami sakkiz kalendar kundan ko'p bo'lmagan har yilgi qo'shimcha mehnat ta'tili beriladi.

Bunda, bitta tashkilotda yoki tarmoqda deyilganda bir xil soha nazarda tutilgan, masalan, tashkiliy tuzilma (struktura) bo'yicha vazirlikda ishlash yoki uning tarmoqlaridagi quyi tashkilotlari nazarda tutilgan. Ushbu moddada qo'llanilgan mavhum jumla o'rniga "bitta tashkilot yoki uning tarmog'i" jumlasini qo'llanilganida, tasavvur aniqroq bo'lar edi.

Ushbu moddaning uchinchi qismida qayd etilgan jumlada qonunchilikda, jamoa kelishuvlarida, shuningdek, jamoa shartnomasida, boshqa ichki hujjatlarda yoki mehnat shartnomasida kodeksning 220-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan har yilgi qo'shimcha mehnat ta'tilini olish huquqini beruvchi ish stajiga boshqa ish beruvchidagi yoxud boshqa tarmoqdagi ish stajini kiritish nazarda tutilishi mumkinligi aytilgan.

Siz hozirgi kunda sog'liqni saqlash tizimida hamshira bo'lib ishlayotgan bo'lsangiz, sizga Mehnat kodeksining 220-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan har yilgi qo'shimcha mehnat ta'tilini olish huquqini beruvchi ish staji hisobga olinmaydi.

Ammo ayrim soha vakillari borki, tibbiyot xodimlari (ular tibbiyot muassasalarida ham, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham bor), buxgalterlar (barcha tashkilotlarda bor), auditorlar, yuristlar va boshqa shu kabi soha vakillari bitta tashkilotdan ikkinchi bir tashkilotga o'tganda, ularning ko'p yillik staji inobatga olinishi maqsadga muvofiq. Buni kodeksning 220-moddasi uchinchi qismi tartibida amalga oshirish mumkin.

Mirkarim OMONOV,
Oltinsoy tuman adliya bo'limi FHDY bo'limi
2-toifali inspektori

Tug'ilgani 61 yildan so'ng qayd etildi



Fuqaro M.D. Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligining "Ishonch telefoni" orqali murojaat qilib, tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi yo'qligi uchun pasport ham ololmaganini bildirib, tug'ilganlik haqidagi guvohnoma va pasport olishda amaliy yordam so'ragan.

Murojaatni o'rganish davomida, haqiqatan ham 1963-yil 10-oktabrda tug'ilgan fuqaro M.D.ning shaxsini tasdiqlaydigan hujjatlari yo'qligi aniqlandi. Adliya vazirligi yordami bilan unga tug'ilganlik haqidagi guvohnoma rasmiylashtirilib, Ichki ishlar vazirligi orqali fuqarolik pasportini olishda amaliy yordam berildi.

Yelena SABIROVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya
vazirligi mas'ul xodimi

UCH OYLIK ISH HAQI TO'LANMAGAN



Fuqarolarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, buzilgan huquqlarini tiklashga doir muammolarni ijobiy hal qilish bugungi kunda adliya idoralari oldida turgan ustuvor vazifalardan biridir.

Bog'ot tuman adliya bo'limi aralashuvi bilan tumandagi qishloqlar harbiy hisob stoli boshliqlarining muammolari o'z yechimini topdi.

Jumladan, tumandagi harbiy hisob stoli boshlig'i lavozimida ishlovchi 11 nafar xodimga 2024-yilning yanvar-mart oylari uchun ish haqi to'lanmasdan kelingan.

Aniqlangan qonunbuzilishi holatlari yuzasidan tuman mahallalar uyushmasiga taqdimnoma kiritilib, 11 nafar xodimga jami 39 million 252 ming 664 so'm ish haqi to'lab berilishi ta'minlandi.

Sardorbek QALANDAROV,
Bog'ot tuman adliya bo'limi boshlig'i

FUQARONING MUROJAATI YUZASIDAN SUD QARORI CHIQRILDI



Gurlan tuman adliya bo'limi tomonidan fuqaro Sh.X.ning tuman sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limida ishlab kelayotgan davrida oylik ish haqlari past tarif koeffitsiyentdan hisoblanib kelinayotgani va buning natijasida to'lanmasdan qolgan ish haqlarini undirib berishda amaliy yordam berishni so'rab qilgan murojaati qonun doirasida o'rganib chiqildi.

O'rganish davomida bo'lim tomonidan fuqaro Sh.X.ga 2021-yildan o'rganish kuniga qadar 100 million 367 ming 907 so'm ish haqi kam hisoblangani aniqlandi.

Mazkur holat yuzasidan tuman adliya bo'limi tomonidan fuqaroga to'lanmagan 100 million 367 ming 907 so'm miqdoridagi ish haqini undirish yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha Shovot tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritilib, to'lanmagan pul mablag'ini undirish yuzasidan sudning hal qiluv qarori qabul qilindi.

Nuriddin RAHIMOV,
Gurlan tuman adliya bo'limi boshlig'i



**Vafot etgan shaxsni ota sifatida belgilash
mumkinmi?**



TADBIRKOR MANFAATI HIMOYA QILINDI



Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan "Allayar Almaz Tabis" mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari Q.M.ning Qorao'zak tuman yo'llardan foydalanish davlat muassasasi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar uchun pul mablag'ini undirib berishda amaliy yordam so'rab qilgan murojaati o'rganib chiqildi.

O'rganish davomida ma'lum bo'lishicha, taraflar o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosan jamiyat tomonidan 240 mln so'mdan ortiq miqdorda ishlar bajarilgan. Lekin, tuman yo'llardan foydalanish davlat muassasasi tomonidan jamiyatga tegishli to'lovlar asossiz ravishda to'lab berilmagan.

Vazirlik tomonidan Chimboy tumanlararo iqtisodiy sudiga tadbirkorlik subyekti manfaatini ko'zlab da'vo arizasi kiritildi. Natijada, "Allayar Almaz Tabis" MChJ foydasiga 240,3 mln so'm asosiy va 19,2 mln so'm qo'shimcha qarzdorlik to'liq undirib berildi.

Azamat SEYDABULLAYEV,
Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi mas'ul xodimi

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga muvofiq, FHDY organlarida mamlakatimiz fuqarolarining MDH mamlakatlari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilan, shuningdek, ikkita chet el fuqarosi o'rtasidagi nikohni qayd etish umumiy asoslarda amalga oshiriladi.

NIKOH TUZISH IXTIYORIY



Bunday nikoh chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsning respublikamizda bo'lish vizasi nikoh tuziladigan kunda haqiqiy bo'lsagina, qayd etiladi. Buning uchun chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsning nikohga kirish haqidagi arizasiga uning shaxsini tasdiqlovchi hujjati nusxasi hamda boshqa shaxs bilan nikohda turmasligi haqidagi legalizatsiya qilingan yoki apostil qo'yilgan hujjat (davlat tiliga tarjimai bilan birga) ilova qilinishi lozim.

Chet elda doimiy yashovchi O'zbekiston Respublikasi fuqarosining nikohini qayd etish o'sha davlat qonunchiligiga asosan uning vakolatli organlari tomonidan yoki mamlakatimizning konsullik muassasalarida mazkur qoidalarga asosan amalga oshiriladi.

Yurtimiz fuqarolarining chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs bilan nikohi, agar nikohni qayd etish O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasasi hududida joylashgan o'sha davlatning qonunlari bilan tan olinganda, shuningdek, imzolashda o'sha davlat va O'zbekiston Respublikasi qatnashgan bitim yoki bu xalqaro shartnomalarga muvofiq hollardagina konsul tomonidan qayd etiladi.

Bordi-yu, boshqa davlatda yashovchi respublikamiz fuqarosi o'sha davlat fuqarosi bilan nikohdan o'tmoqchi bo'lsa, bizning konsul ariza beruvchi O'zbekiston Respublikasi fuqarosining nikohda turmasligi haqida ma'lumotnoma berishi mumkin. Bu hujjat nikohni qayd ettirmoqchi bo'lgan o'sha davlat fuqarosining iltimosiga ko'ra, konsullik muassasalarida mavjud bo'lgan ma'lumotlar asosida beriladi.

Agar konsullik muassasasida nikohlanuvchi shaxsning oilaviy ahvoli to'g'risida ma'lumotlar bo'lmasa, konsul bu ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi orqali O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan oladi.

Sherzod ABDULLAYEV,
Bandixon tuman FHDY bo'limi 1-toifali inspektori

Mirobod tuman adliya bo'limi tomonidan xususiy mulkni himoya qilish va mulk huquqi daxlsizligi masalalarida qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, fuqaro R. Parpiyevning Mirobod tuman hokimligi tomonidan buzilgan do'kon uchun kompensatsiya to'lovi to'lanmayotganidan noroz bo'lib qilgan murojaati o'rganildi.

MULKDORGA KOMPENSATSIYA PULI TO'LAB BERILDI



O'rganish davomida R. Parpiyevga xususiy mulk asosida tegishli bo'lgan tumandagi "Mehrjon" va "Sariko'l" ko'chalari kesishuvida joylashgan mulkka egalik qilish va kadastr hujjatlari bo'lishiga qarabmasdan do'kon binosi 2022-yil 26-mayda tuman hokimligi mas'ul xodimlari tomonidan hech qanday ogohlantirishsiz va hujjat taqdim etmasdan buzilgani ma'lum bo'ldi.

Tuman hokimligining 2023-yil 13-oktabrdagi xatida 2022-yilda Haydar Aliyev nomli ko'chada joylashgan bog'da O'zbekiston hamda Ozarbayjon Respublikalari davlat rahbarlari tashrifi munosabati bilan ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari olib borilgani bayon qilingan.

Bundan tashqari, o'rganish jarayonida "Sarako'l" ko'chasida joylashgan avtobus bekatidan tijorat maqsadida foydalanilayotgani yo'lovchilar uchun noqulaylik tug'dirgani, jamoatchilik fikriga asosan avtobus bekatini buzilib, qulayliklarga ega bo'lgan zamonaviy ko'rinishda qaytadan qurilib, foydalanishga topshirilgani ham ma'lum bo'ldi.

Biroq, shunga qaramasdan, ushbu ko'chmas mulk binosi mulk huquqi asosida tadbirkorga tegishli bo'lgani e'tibordan chetda qolgan. To'plangan hujjatlarga ko'ra, P. Parpiyevning manfaatini ko'zlab fuqarolik ishlari bo'yicha Mirobod tumanlararo sudiga to'lab berilmagan 307 million 921 ming so'm kompensatsiya pulini undirish haqida da'vo arizasi kiritildi. Sudning 2024-yil 6-martdagi hal qiluv qaroriga binoan mulkdorga kompensatsiya puli to'lab berilishiga erishildi.

Abror BERDIYEV,
Mirobod tuman adliya bo'limi bosh yuriskonsulti



"SUYUNCHI PULI" BERILMAYDIMI?



– Bola tug'ilganda beriladigan bir martalik suyunchi nafaqasini tayinlash tartibi qanday belgilangan?

– Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-noyabrda qabul qilingan muvofiq, bola tug'ilganda suyunchi nafaqasini olish bo'yicha kompozit xizmati joriy etilgan.

Bunda, suyunchi nafaqasi to'lovi uchun zarur ma'lumotlar Pensiya jamg'armasi tomonidan inson omilisiz tegishli vazirlik va idoralardan elektron shaklda olingan holda axborot tizimi orqali "Xalq banki"ga yuboriladi.

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 4-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga ba'zi ijtimoiy nafaqalarni to'lash tartibini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Mazkur qonunchilikdagi o'zgarishga ko'ra, 2024-yil 1-apreldan boshlab farzand tug'ilganda beriladigan bir martalik nafaqa puli:

- ✓ birinchi farzandi uchun – barcha ayollarga;
- ✓ ikkinchi farzandi uchun – farzand tug'ilgan paytda "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimiga kiritilgan oilaning a'zosi bo'lgan ayollarga rasmiylashtiriladi.

Tug'ilganlikni qayd etish bilan bog'liq kompleks davlat xizmatlarini ko'rsatish doirasida murojaat talabisiz tayinlanadi.

"FHDYning yagona elektron arxivi" axborot tizimida tug'ilganlik haqidagi dalolatnoma yozuvi qayd etilganida tug'ilganlik haqidagi ma'lumotnoma "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimiga yuboriladi.



– Ma'lumotnomani kim ko'rib chiqadi va qaror qanday qabul qilinadi?

– "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimi orqali nafaqa avtomatik tarzda tayinlanadi va natijasi bo'yicha nafaqa oluvchiga SMS xabar yuboriladi.

O'zgartirish Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 20-oktabrdagi qaroriga 4-ilova – "Tug'ilganlikni qayd etish bilan bog'liq kompleks davlat xizmatlarini ko'rsatishning Ma'muriy reglamenti"ga kiritilmoqda.

Eslatib o'tamiz, hozirgi vaqtda bola tug'ilganda beriladigan bir martalik nafaqa miqdori mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 70,3 foizi (hozirda 738 150 so'm)ga teng.



– Nafaqa to'lovi qachon va qayerda amalga oshiriladi?

– Bola tug'ilishi FHDYda qayd etilganidan so'ng nafaqa oluvchining AT "Xalq banki"ga murojaati asosida nafaqa naqd pul shaklida yoki plastik kartasiga o'tkazish yo'li bilan to'lanadi.

Bibisora HUSANOVA,
Oltinsoy tuman adliya bo'limi FHDY bo'limi 1-toifali inspektori

6 TALABA NIGOHI

Xadicha Sulaymonova 1913-yil 3-iyulda Andijon shahrida tavallud topgan. Aynan Oktabr inqilobi natijasida u otasidan ayriladi. Butun oila onaning qo'lida qoladi. Oilasi ziyoli oiladan bo'lgani bois onasi Xadichaning va boshqa barcha farzandlarining ilm olishini istaydi. U bunga qo'lidan kelgancha harakat qiladi.

Garchi, uning bolalik davri juda ko'p qiyinchiliklar va zamonning teskari davriga to'g'ri kelgan bo'lsa-da, Xadicha ilm olish va adolatsizliklarga barham berish haqida o'z rejalarini tuzgan edi. U yoshligidanoq ayollarga, ayniqsa, jamiyatdagi huquqiy kamchiliklarga alohida e'tibor berib, ularga yechim topish uchun jon kuydirishni boshladi.

“

Xadicha Sulaymonova 17 yoshida ilk bor sud majlisida qatnashadi. Sudyaning gapirishi, o'zini tutishi uning e'tiborini tortadi. U aynan shundan so'ng taqdiri huquqshunoslik sohasi bilan bog'langanini his qildi va umr yo'lini huquq bilan, ya'ni jinoyat huquqi bilan bog'lashga qaror qildi.

1945-yilning 20-iyulida SSSR Adliya komissarligi huzuridagi Butunittifoq yuridik fanlar institutida dissertatsiyasini himoya qildi. Ilmiy kengash uning dissertatsiya ishini yakdillik bilan ma'qulladi. Xadicha Toshkentga huquqshunoslik fanlari nomzodi sifatida qaytib keldi. U huquqshunoslik sohasida ilmiy daraja olishga sazovor

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, akademik Xadicha Sulaymonova jinoyat huquqi va O'zbekiston sud-huquq tizimida o'ziga xos maktabga asos solgan olimasi hisoblanadi. Xadicha Sulaymonovaning tirik qolishi ham bir mo'jiza edi aslida. Negaki, uning bolalik va yoshlik yillari aynan sovet jamiyati boshdan kechirayotgan g'alayonli davrlarga to'g'ri keldi.



IBRATGA AYLANGAN UMR

bo'lgan birinchi o'zbek ayoli edi.

U 1941-1954-yillarda Toshkent yuridik instituti jinoyat huquq kafedrasida dotsenti va mudiri lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi. 1954-1955-yillarda mazkur institutning rektori lavozimida ishladi. O'zbek xotin-qizlari orasida birinchilardan bo'lib, 1951-yilda "O'zbekistonda jinoyat huquqining vujudga kelishi va rivojlanishi" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

U 1956-1959-yillarda Adliya vaziri sifatida faoliyat yuritdi. O'zbekiston Respublikasi Ministrlar Soveti huzuridagi Adliya komissiyasi raisi, Oliy sud raisi lavozimlarida ishladi. O'zbekiston

Fanlar akademiyasi Falsafa va huquq instituti, Adliya vazirligi huzuridagi Sud ekspertizasi ilmiy tadqiqot markazini tashkil etishga bosh-qosh bo'ldi.

22 yoshida sudyalik lavozimini egallagandan so'ng sud-huquq sohasida samarali faoliyat yuritdi. Uning qizg'in faoliyati jamiyatdagi huquqbuzarliklarni tahlil qilish, oldini olish, ularning kelib chiqish sabablarini o'rganishdan iborat bo'ldi.

Fikrimizcha, Xadicha Sulaymonova o'z sudyalik faoliyatidagi islohotlarni 4 turda amalga oshirgan. Ya'ni, sudlar mustaqilligini ta'minlash borasidagi islohotlar, fuqarolarning murojaatlari bilan bog'liq islohotlar, sudning

adolatli hukm chiqarishi bilan bog'liq ishlar, jamiyatda ayollar huquqlari ta'minlanishi bilan bog'liq islohotlar.

Sudyalik paytlarida X. Sulaymonova jamiyatda sodir bo'layotgan eng ko'p jinoyatlar va huquqdagi bo'shliqlarni aniqlab chiqdi. Sudda ishlayotgan kezlarda adolatli va oqilona hukm chiqarishi bilan ham xalq orasida obro' qozondi. 1956-yilda O'zbekiston SSRda Adliya vaziri lavozimiga ko'tarilishi bilan sud-huquq tizimida katta islohotlarni amalga oshirishga kirishdi. Asosan ishni jamiyatdagi adolatsiz qonun normalarini o'zgartirish yoki boshqalarini ishlab chiqishdan boshladi.

X. Sulaymonova yuksak irodasi bilan o'sha davr uchun ham eng dolzarb bo'lgan mavzuni ko'tarishga erishdi. Masalan, ayrim manbalarda Xadicha Sulaymonovaning o'zi bevosita fuqarolarni qabul qilgani, murojaatlarini o'rganganligi va ularga huquqiy yechim berishga shaxsan o'zi kirishgan vaqtlari ham bo'lgani ta'kidlanadi.

Xulosa o'rnida aytganda, sud-huquq tizimimiz ancha qiyinchiliklar va yo'qotishlarning natijasida bugungi ko'rinishga keldi va bu boradagi islohotlarda Xadicha Sulaymonovaning ham mehnati beqiyos. U kishi bizga ulkan ilmiy meros qoldirdi. U fidoyiligi, kuchli irodasi, tinimsiz sa'y-harakatlari bilan millatni uyg'otish va huquqiy tizimni yaxshilashga erishdi. Akademik Xadicha Sulaymonovaning sermazzun hayot yo'li biz – yoshlar uchun katta jasorat va ibrat maktabi bo'lib xizmat qilmoqda.

**Feruza RO'ZIQULOVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti
2-kurs talabasi**

Sud mustaqilligini talab qilish – bu nafaqat sudyalarning orzusi, balki insonning konstitutsiyaviy huquqi hisoblanadi, chunki aynan mustaqil sudya har bir shaxsning ishi bo'yicha xolis va adolatli qaror qabul qilish imkoniyatiga ega. Ushbu fikrlar muallifi ibratli umr sohibasi, huquqshunos olimasi Xadicha Sulaymonovadir.

KUCHLI IRODA SOHIBASI



Zimmasiga katta mas'uliyatni olib, xalqning xizmatiga bel bog'lash hammaga ham nasib etmaydi. Shunday baxtga erishgan mard, jasur ayol Xadicha Sulaymonovaning umr yo'li barcha uchun o'rnak va ibratdir.

Inson shunchaki kasb tanlamaydi. U hayotning ayovsiz zarbalari, quvonchu shodliklari ta'sirida chiniqadi, irodasi toblanadi. Yosh Xadichaning huquqshunos bo'lishiga ham uning sud jarayonlarida qatnashishi zamin bo'lgan. U 1931-yilda to'qqiz yillik maktabni tamomlab, huquqshunos

bo'lish maqsadida Toshkentga yo'l oladi. O'sha davrda O'zbekistonda oliy ma'lumotli huquqshunoslar tayyorlashga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqib, Toshkentda ilk bor Jahon Obidova nomidagi Sovet qurilishi va huquq ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etiladi. Xadicha Sulaymonova ushbu institutning bir yillik tayyorlov kursini tamomlagach, huquq fakultetining ikkinchi kursiga qabul qilinadi.

Orzular ro'yobi talaba Xadichani o'qib-izlanishga undadi. U allaqachon o'z davrining eng bilimdon talaba-

lari safidan joy olishga ulgurgan edi. Yosh qizning bilimga chanqoqligini ko'rgan Moskvadan kelgan professor Ivan Ivanovich Krilov darslarining birida shogirdiga katta umid bildiradi: "Sulaymonova, siz institutni tamomlaganingizdan keyin to'xtab qolmang, aspiranturada o'qing, harakat qilsangiz, katta olimasi bo'lishingiz mumkin". Bu juda katta ishonch va e'tirof edi, haqiqatan ham shunday bo'ldi. Xadicha institutni bitirib, tuman sudiga sudya sifatida ishga yuboriladi.

Ko'p vaqt o'tmay u Oliy sud sudyaligiga tavsiya qilinadi va 1935-yilning o'zidayoq Oliy sud sudyaligiga saylanadi. Bir paytlar poytaxtga o'qishga kelgan orzulari osmon qizning bunday mavqega erishishi shunchaki sodir bo'lmagan, albatta. Bu muvaffaqiyatlar ortida kuchli iroda va katta mehnat bor. Xadicha u paytda atigi 22 yoshda edi. Tarixning sinovli kunlarida, eng qiyin davrlarda (1930-yillar) ishlagan bu matonat sohibasi har qanday vaziyatda ham har bir ishga adolatli yechim topishga intilgan.

Ayolni nozik, o'jiza deymizu kezi kelganda har qanday erkak kishi qilolmaydigan yumushni ham bajara olishiga guvoh bo'lamiz. Tinimsiz izlanishlaru uyqusiz kechalar, mashaqqatlar o'z samarasini berdi. 1938-yilda Xadicha Sulaymonova Moskva yuridik institutining jinoyat huquqi kafedrasida

aspiranturasiga qabul qilindi. U institutni tamomlab, Toshkentga qaytdi. Toshkent yuridik institutida o'qituvchilik qildi. 1945-yil SSSR Adliya komissarligi huzuridagi Butunittifoq yuridik fanlar institutida dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, huquqshunoslik fanlari nomzodi ilmiy darajasini oldi. Huquqshunoslik sohasida ilmiy darajaga ega bo'lgan birinchi o'zbek ayoli sifatida tarixda qoldi.

1950-yilda Xadicha Sulaymonova "O'zbekistonda jinoyat huquqining vujudga kelishi va rivojlanishi" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

1954-yil "O'zbekiston SSRda xizmat ko'rsatgan fan arbobi" faxriy unvoniga sazovor bo'ldi. O'z davrining matonatli ayoli, ilm-ma'rifatda dunyo ayollarini ortda qoldiradigan, o'z yurti, xalqi uchun xizmat qilib tolmagan birinchi yuridik fanlar doktori, professor, akademik, davlat va jamoat arbobi, O'zbekiston Adliya vaziri, O'zbekiston Oliy sudi raisi Xadicha Sulaymonovaning qisqa, ammo mazmunli umri abadiyatga muhurlandi. Uning izdoshlari ham xalq koriga yaraydigan bilimli avlod bo'lib ulg'ayadi, albatta.

**Laziza AMIROVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti
2-kurs talabasi**



XIZMAT TEKSHIRUVI xufiyonami?



– Ish beruvchi menga nisbatan xizmat tekshiruvini o'tkazdi, natijasi menga noma'lum, biroq menga intizomiy jazo qo'lladi. Shu to'g'rimi?



– Amaldagi Mehnat kodeksida xizmat tekshiruvini o'tkazish tartibi hamda asoslari haqida batafsil belgilab qo'yilgan.

Umuman olganda, xizmat tekshiruvini o'zi nima? Xizmat tekshiruvini xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilgani faktini, uning sodir etilishida xodimning aybini, xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilishiga imkon bergan sabablar va shart-sharoitlarni, ish beruvchiga yetkazilishi mumkin bo'lgan moddiy zararining xususiyati va miqdorini aniqlash maqsadida amalga oshiriladigan tekshirishdir.

O'ziga nisbatan xizmat tekshiruvini o'tkaziladigan xodim ish beruvchining xizmat tekshiruvini o'tkazish haqidagi buyrug'i hamda xizmat tekshiruvini o'tkazish bo'yicha komissiya tarkibi bilan imzo qo'ydirib tanishtirilishi kerak.

Komissiya:

- o'ziga nisbatan xizmat tekshiruvini o'tkazilayotgan xodimning hamda xizmat tekshiruvida ishtirok etish uchun jalb qilingan boshqa shaxslarning huquq va erkinliklariga rioya etishi;
- xizmat tekshiruvini materiallarining but saqlanishini va maxfiylikni ta'minlashi, tekshiruv natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor etmasligi;
- o'ziga nisbatan xizmat tekshiruvini o'tkazilayotgan xodimga uning huquq va majburiyatlarini tushuntirishi;
- xizmat tekshiruvini o'tkazilishining borishi haqida ish beruvchini xabardor qilishi;
- o'ziga nisbatan xizmat tekshiruvini o'tkazilayotgan xodimning shaxsiy, ishbilarmonlik va axloqiy sifatlarini tavsiflovchi hujjatlar va materiallarni to'plashi;
- o'ziga nisbatan xizmat tekshiruvini o'tkazilgan xodimni xizmat tekshiruvini o'tkazish natijalari to'g'risidagi dalolatnoma bilan imzo qo'ydirib tanishtirishi, tanishish rad etilgan yoki tanishganlik to'g'risida imzo qo'yish rad etilgan taqdirda esa komissiya a'zolari tomonidan imzoladigan tegishli dalolatnoma tuzishi shart.

O'ziga nisbatan xizmat tekshiruvini o'tkazilayotgan xodimning ham huquq va majburiyatlari bor. Ya'ni:

- xizmat tekshiruvini nima sababli o'tkazilayotganini bilishga;
- komissiya a'zolarini rad etish to'g'risida arz qilishga;
- xizmat tekshiruvini masalalari bo'yicha yozma tushuntirishlar berishga;
- xizmat tekshiruvini o'tkazilishi davomida iltimosnomalar berishga;
- xizmat tekshiruvini materiallari bilan tanishishga, ulardan ko'chirmalar, ko'chirma nusxalar olishga;
- xizmat tekshiruvini natijalari haqidagi dalolatnoma bilan tanishishga;
- komissiyaning qarorlari va harakatlari (harakatsizligi) ustidan yakka tartibdagi mehnat nizolari uchun belgilangan tartibda shikoyat qilishga haqlidir.

Amaldagi Mehnat kodeksining 309-moddasiga asosan agar xodimning ish joyida hozir bo'lishi xizmat tekshiruviga xalaqit berishi mumkin deb taxmin qilish uchun asosli sabablar mavjud bo'lsa, ish beruvchi xodimni ishdan chetlashtirishga haqli.

O'ziga nisbatan xizmat tekshiruvini o'tkazilayotgani sababli ishdan chetlashtirilgan xodimga ishdan chetlashtirishning butun davri uchun o'rtacha ish haqi saqlanib qoladi.

Xizmat tekshiruvini natijalari to'g'risidagi dalolatnoma komissiya to'plagan boshqa materiallar bilan birga ish beruvchiga komissiya majlisida o'tkazilgan xizmat tekshiruvini haqida qaror qabul qilinganidan keyin uch ish kunidan kechiktirmay topshirilishi kerak.

Mavluda BOBORAIMOVA,
fuqarolik ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tumanlararo sudi sudyasi



Uxlayotganingda vaqt to'xtab qolmaydi. Ovuq tanouul mahali ham vaqt o'taveradi. Transportda ketayotganingda ham vaqt ildamlab ketaveradi. Qanday qilib pul topsam ekan deb o'ylab o'tirganingda ham, telefonda ezmalanib turganingda ham vaqt shitob bilan o'taveradi.

“Abadiyat qonuni”



Yil xuddi oydek, oy xuddi haftadek, hafta xuddi bir soatdek, bir soat xuddi minutdek, minut esa xuddi yarq etib yonib-o'chgan shu'ladek o'tib boraveradi. Bu vaqtning tugab borayotganligini, umr esa ortga qaytmasligini anglatadi. Hayotimizning eng katta boyligi – bu vaqtdir!

Sen o'ylanib, ikkilanib turganingda, kimdir tavakkal qilib muvaffaqiyatga erishadi;

– sen qaror qabul qilishga mijg'ovlik qilib turganingda, kimdir dadil qarorlar qabul qilib muvaffaqiyat qozonadi;

– sen sariq chaqaga qimmat, bema'ni va sifatsiz ish qilganingda, kimdir asrlarga ta-tigulik ishlarni amalga oshiradi;

– sen zarracha foydasi bo'lmagan ishlar bilan mashg'ul bo'lib yurganingda, kimdir foydali ishlar bilan band bo'ladi.

To'g'ri, har kuni kimdir seni ko'nglingni qoldirishi, xafa qilishi mumkin – ularni yuragingga yaqin olma, butun diqqat-e'tiboringni muhim ishlarga yo'naltir.

Har kuni yangi bir muammo tug'ilishi mumkin – ularning oldida chekinma, kuchli bo'!

Har kuni uquvsiz, befahm, ovsar va aqlli, idrokli, bama'ni, ishchan odamlar bilan mu-loqot qilishga to'g'ri keladi – barcha bilan gaplash va shunda odamlarning qadriga yetasan, ularning foyda-zararini bilib olasan!

Hech qachon vaqtning ortga qaytara olmay-san va hatto umringdan qancha qolganligini ham bilmaysan. Shu bois, samimiy yasha, yoqtirgan ishingni qil, yaqin kishilarning qadriga yet, har bir imkoniyatdan samarali foydalan. Doimo o'sish, rivojlanish, kamolotga erishish ichida yasha va shunda abadiyatga daxl qilasan – abadiyat uchun esa vaqtning hech qanday ahamiyati yo'q.

Rus tilidan Jaloliddin SAFOYEV tarjimasi

E'OLONLAR

Qashqadaryo viloyat adliya boshqarmasi tomonidan “Advokatura to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga asosan, Qarshi shahar “Srojiddin Namozov himoyasida” advokatlik byurosi advokati Namozov Srojiddin Sattorovichga nisbatan Qashqadaryo viloyat prokuraturasi tomonidan jinoyat ishi qo'zg'atilgani sababli uning nomiga viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 2018-yil 28-dekabrda berilgan L-70662263-sonli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi va advokatlik maqomi

boshqarmaning 2024-yil 15-apreldagi buyrug'i bilan sud hukmi qonuniy kuchga kiringunga qadar yoxud reabilitatsiya qiluvchi asoslarga binoan uni jinoiy javobgarlikdan ozod etish to'g'risida qaror qabul qilingunga qadar bo'lgan davrga to'xtatildi.

Qashqadaryo viloyat adliya boshqarmasi tomonidan “Advokatura to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga asosan, Chiroqchi tumani “Munis himoyasida” advokatlik byurosi advokati Ochilova Mavluda Alimovnaga nisbatan

Qashqadaryo viloyat prokuraturasi tomonidan jinoyat ishi qo'zg'atilgani sababli uning nomiga viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 2018-yil 28-dekabrda berilgan L-70661283-sonli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi va advokatlik maqomi boshqarmaning 2024-yil 15-apreldagi buyrug'i bilan sud hukmi qonuniy kuchga kiringunga qadar yoxud reabilitatsiya qiluvchi asoslarga binoan uni jinoiy javobgarlikdan ozod etish to'g'risida qaror qabul qilingunga qadar

bo'lgan davrga to'xtatildi.

Jinoyat ishlari bo'yicha Paxtakor tuman sudining 2022-yil 27-apreldagi hukmiga asosan “KAFOLAT” advokatlar hay'ati advokati Xasan Hazratqulovga 2018-yil 27-dekabrda berilgan GZ 000023-sonli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya hamda 2018-yil 27-dekabrda berilgan 23-sonli guvohnomasining 2024-yil 22-apreldagi 91-um-sonli buyrug'iga asosan tugatildi.

8 JURNALIST KUZATUVI

Ijtimoiy tarmoqlar orqali har kuni turli xabar va lavhalardan voqif bo'lamiz. Ularda nimalar yoritilmaydi deysiz? Masxarabozga aylangan qo'shiqchilar, aql o'rgatishga usta psixologlar, meros qoldiruvchi firibgarlar, o'z jigariga jabr qilayotgan nobakorlar, bolalarga qilinayotgan zo'ravonliklar, bir-biridan ayanchli fojialar, xullas, hamma narsa haqida o'qishingiz, ko'rishingiz mumkin. Ba'zilarini ko'rib xafa bo'lsangiz, ayrimlaridan saboq olasiz. Kishini keskin bahs-mulohazalarga majbur qiladigan lavhalar ham yo'q emas. Yaqinda Kun.uz saytida "Ohangaronda 2 tup tog' lolasini uzgan yigit jarimaga tortildi. Yigitga nisbatan ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirilgan hamda 1,7 mln so'm tabiatga yetkazilgan zarar chorasi qo'llangan" degan xabarni o'qib, bu adolatsizlikdan taajjublandim, to'g'rirog'i, g'azablandim.

QONUN

BARCAGA BAROBAR EMAS(MI)?

Ma'lum qilinishicha, viloyat Ekologiya boshqarmasi Ohangaron tuman bo'limi inspektorlari tomonidan nazorat tadbirlari o'tkazilgan. "Reyd" davomida tumanning "Chetsuv" mahallasi tog'li hududida fuqaro I.E. tomonidan "Qizil kitob"ga kiritilgan 2 dona tog' lolasi uzib olingani aniqlangan.

To'g'ri, barchamiz tabiatni asrashga mas'ulmiz! Tabiatga ozor berish mumkin emas, degan aqida bilan ulg'ayganmiz. Bu aqidaga amal qiladigan bo'lsak, 2 tup tog' lolasi uchun 1,7 million so'm zararni qishloq yigitidan undirishga ham qarshilik qilish qiyin. Ammo 2 ta emas, butun boshli bog'larni payhon qilib, hisobsiz gullarni yakson qilgan, minglab daraxtlarni kesib tashlab, na jarima, na zararni to'lamaydigan "ishbilarmon"larga nega kuchimiz yetmaydi? Nega ularni ko'rib-ko'rmaslikka olamiz? Nega qonun barchaga barobar emas?!

OLG'IRLARGA QALQON, ODDIYLARGA ESA...

Qizilqumning qishi qahrli bo'ladi. Olis ovullarda gaz haqida o'ylash-ku xom-xayol, go'yoki ertak, "svet" ham o'ziga yarasha, xuddi mo'jizadek gap. Biyday sahroda jon saqlash uchun pechkaga qalaydigan o'tin qayda deysiz? Cho'pon o'tovidan sal nariroqdan bir quchoq saksovu terib ketayotgan o'smirni ekologiya posbonlari to'xtatib, jarimaga tortilishini dag'dag'a qilib, o'takasini yorganida yana bir bor hushyor tortadi kishi. Ilojsizlikdan, xuddi katta jinoyat sodir etgandek qalt-qalt titrab, ko'zida yosh bilan javdirab, inspektordan shafqat so'rab turgan bolakay haqidagi videolavhani ham ko'pchilik yaxshi eslasa kerak. Go'yoki saksovuozlar kamayib ketmasin deb "jon kuydirayotgan" ekologiyamiz jonkuyarlariga nima deyishga ham hayronmiz. Chunki bu inspektorlar shunchalik "hushyor", xuddi shu cho'ldan mashina-mashina saksovuollarni ortib ketayotgan olg'irlarga qalqon bo'lgani, ularni ko'rib-ko'rmaslikka olgani odamga alam qiladi. Qonunlarimiz esa... Ekologiya sohasidagi nayranglar barham toparmikin, degan savolga javob yo'q!



"BALIQ BOSHIDAN..." DEGANI SHU-DA!

"Baliq boshidan..." degan maqolni ko'p takrorlaymiz. Hayotdagi juda ko'p illatlarga xuddi ana shu baliq boshidan degan holat doya bo'layotgandek, nazarimizda.

O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi nomidan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va jarima solish tariqasida ma'muriy jazo chorasini qo'llashga haqli bo'lgan, vakolatli hokimiyat vakili hisoblangan mas'ul ekologiya xodimi (navoiylik) 3 ta daraxtni kesgan bir fuqaro nomiga rasmiylashtirilgan 92 million 400 ming so'm zarar summasi, ikkinchi fuqaro

nomiga rasmiylashtirilgan 5 million so'm zarar va jarima pullari hamda endi kesilishi mumkin bo'lgan 4 tup tut daraxti uchun 40 million so'm, daraxtlar kesilgandan keyingi zararni kamaytirib hisoblab berishni va'da qilgani evaziga 25 million so'm, jami 164 million 700 ming so'm pulni bilsa – jarima, bilmasa – pora sifatida olgan vaqtida huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari tomonidan ashyoviy dalillar bilan ushlangani hamda sud hukmi bilan bir yarim yil ozodlikdan mahrum etilgani adolat haqida og'iz ko'pirtirib gapirishga yo'l qo'ymaydi.

Yana bir ajoyib qadriyatimiz bor – juda mehmondo'stmiz. Shu qadar mehmondo'stmizki, yurtimizga keluvchi mehmonlarni mehmon qilish uchun hatto "Qizil kitob"ga kirgan, moratoriy e'lon qilingan, qonun bilan ta'qiqlangan fauna va flora olamini ularning oyog'i ostiga tashlashga tayyormiz. Bu yoqda esa qonunlarimiz qora ko'zoynak taqib olib, soxta tomoq qirib turgan odamga o'xshaydi...

Rossiyalik ovchi yurtimizga kelganida unga 2 ta qo'ng'ir ayiqni otishga ruxsat bergan soha amaldori to'g'risidagi voqea esingizga tushdimi? Tabiatni, atrof-muhitni muhofaza qilishga, asrashga mas'ul idora rahbarining o'zi bunday qonunbuzilishiga rasman imzo chekib, ruxsat berganini qaysi tarozuda o'lchashni bilmaymiz. Nahotki, bu amaldorning brakonerlar bilan tili bir bo'lsa?!

O'sha ayiqni otgan mehmonning yurtiga bir borib, birorta daydi itga tosh otib ko'ring-chi yoki ko'chalaridagi yovvoyi qushlarga ozor bering-chi, nafaqat ekologning jazosiga, o'sha joydagi mahalliy aholining qahru g'azabiga ham uchray-siz. Qushlar to'dasini otishga-ku, yo'l bo'lsin. Hatto, ularni hurkitib yuborganingiz uchun ham sizni sudga berishlarini bilasizmi? Biz esa bu kimsalarga o'z hududimizda, tabiatimizga, hayvonot va nabotot olamimizga bosqinchilik qilishiga ruxsat berib, gerdayib yuribmiz.

Ekologik madaniyat yo'q joyda inson vahshiy lashadi, mehr-shafqat degan olijanob tuyg'ular unutiladi. Bunday vaqtda na qonun, na vijdon tarozusi tosh bosmay qoladi.

Yunon faylasufi Pifagorning mashhur hikmati bilan fikrimizga nuqta qo'ymoqchimiz: "Jonzotlarni o'ldirishdan saqlaning, chunki odam o'ldirish jonivorlarni o'ldirishdan boshlangan." Xulosa o'zingizdan!

Marusa HOSILOVA,
"Inson va qonun" muxbiri

INSON
va qonun

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olingan



Bosh
muharrir
Asliddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov
Furqat Tojiyev
Akbar Musayev
Xayotjon Klichev
Sevara O'rinboyeva
Yorbek Iskandarov
Dilfuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Navbatchi
Yorbek Iskandarov
Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiyboyev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter bazasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy

Tiraji – 4120
Buyurtma – 1397

Topshirish vaqti – 19:00
Topshirildi – 19:00

MANZILIMIZ:

100060, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18
Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5